

“Ispan va o‘zbek tilida edad leksemasi ishtirok etgan barqaror iboralar tahlilidagi umumiyl va farqli stilistik xususiyatlar”

Achilova Zulkumor Pulatovna

O‘zDJTU katta o‘qituvchisi,
GARCIA-Escudero Pilar

Ispanyalik professor-o‘qituvchi

Annotatsiya: Tadqiqot ispan va o‘zbek tilida edad leksemasi ishtirok etgan barqaror iboralar tahlilidagi umumiyl va farqli stilistik xususiyatlar, ular o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni o‘rganishga, shuningdek, ispan va o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar tomonidan inson yoshi davrlarini idrok etish bilan birga keladigan lingvistik ongning stereotiplarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *edad - yosh, ko‘chma ma’nolar, barqaror iboralar, leksik va semantik xususiyatlar, ispan va o‘zbek tilida, yosh davrlarini, linguistik ongn, stereotiplar.*

“Common and different stylistic features in the analysis of stable expressions involving the lexeme edad in Spanish and Uzbek”

Abstract: The study aims to study the common and different stylistic features in the analysis of stable expressions involving the lexeme edad in Spanish and Uzbek, the systematic relationships between them, as well as to identify the stereotypes of linguistic consciousness that accompany the perception of human age periods by Spanish and Uzbek speakers.

Key words: *edad - age, figurative meanings, stable expressions, lexical and semantic features, in Spanish and Uzbek, age periods, linguistic consciousness, stereotypes.*

«Общие и различные стилистические черты при анализе устойчивых выражений с лексемой edad в испанском и узбекском языках»

Аннотация: Целью исследования является изучение общих и различных стилистических черт при анализе устойчивых выражений с лексемой edad в испанском и узбекском языках, системных связей между ними, а также выявление стереотипов языкового сознания, сопровождающих восприятие возрастных периодов человека носителями испанского и узбекского языков.

Ключевые слова: *edad - возраст, переносные значения, устойчивые выражения, лексико-семантические особенности, в испанском и узбекском языках, возрастные периоды, языковое сознание, стереотипы.*

KIRISH

Tadqiqot ispan va o‘zbek tilida edad leksemasi ishtirok etgan barqaror iboralar tahlilidagi umumiyl va farqli stilistik xususiyatlar, ular o‘rtasidagi tizimli munosabatlarni o‘rganishga, shuningdek, ispan va o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar

tomonidan inson yoshi davrlarini idrok etish bilan birga keladigan lingvistik ongning stereotiplarini aniqlashga qaratilgan.

"Yosh" tushunchasi inson mayjud bo'lgan lingvomadaniy muhitning eng muhim elementlaridan biridir. Yosh - jismoni, psixologik va xulq-atvor rivojlanishining sifat jihatidan o'ziga xos davri bo'lib, unga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Shaxsning yoshi kognitiv jarayonlarda, uning idrokida, xotirasida, tafakkurida, nutqida, shaxsiyat xususiyatlarida, qiziqishlarida, mulohazalari, qarashlari, xulq-atvor motivlarida namoyon bo'ladi. Yosh tushunchasi bolalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishida yosh normalarini o'rnatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

"Edad" konseptining sanab o'tilgan ma'nolari bizga ispan tilida bo'lgani kabi, o'zbek tilida xam "yosh" tushunchasi vaqt va rivojlanish tushunchalari bilan uzviy bog'liq degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. O'zbek tilida "yosh" leksemasi birovning yoki biror narsaning rivojlanishi, o'sishi, ulg'ayish davri, yashash vaqtin, yillari, yer tarixidagi davrlar, asr, yil, oy, soat, soniya va dakikalar ma'nolarini ham bildiradi. Biroq, ispan va o'zbek tillarining leksikografik manbalari ma'lumotlarini taqqoslash "Edad" konseptini yosh leksemalarining talqinida ba'zi nomuvofiqliklar mavjudligini aniqlashga imkon berdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Konsept va bu bo'yicha olib borilgan ishlar o'zbek tilshunosligida maqtanarli darajada emas. Internet sahifalari orqali kuzatishlarimiz natijasida rus tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar nihoyatda ko'pchilikni tashkil etishining guvohi ham bo'ldik. Rus olimlari tomonidan berilgan ta'riflar, nazariyalar, tasniflar konseptologiya bo'yicha bajarilajak ishlar uchun nazariy asos bo'lsa ajab emas. O'zbek tilshunosligida tahlil va talqin vositasi hamda termin sifatida "konsept" atamasasi 1990- yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Bugungi kunga qadar ko'plab olimlar bu borada o'z tadqiqotlarini olib borgan bo'lsa-da, yakdil bir qaror sifatida uning aniq ta'rifini berishgan emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning yadrosi sifatida takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, oly tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushunchaga juda ko'plab olimlar o'zlarining ta'riflarini berishgan. Birmuncha yangi hisoblangan bu yo'nalish bo'yicha o'zbek tilshunosligida ham tadqiqot ishlari ko'lami ortmoqda. Shu o'rinda Sh. Safarov, N.Mahmudov, T. Mardihev, E.Mamatov, M. Rahmatova, O'.Yusupov, G. Hoshimov kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash joiz.

Konsept tushunchasiga so'z munosabati sifatida qarash mumkin bo'lgan shu bilan bir qatorda, mavhum hodisa bo'lganligi sababli uni aynan bir birlikning mayjud bo'limgan, moddiy ko'rinish aks etmagan, balki ongimiz, tafakkurimiz orqali hosil qiladigan ma'nolar jamlanmasi sifatida baholaymiz. Bu borada M.Raxmatova: "Inson faoliyati davomida to'plangan bilim uning ongida aks etar ekan, bunday mental reprezentatsiya milliy madaniy faoliyatning aks etishidir", - degan fikrni bayon etadi.[7, 13.] Biroq "konsept" atamasini "ma'no", "tushuncha" kabi hodisalar bilan bir qatorga qo'yish mumkinligi, shu bilan birgalikda ular aynan bir xil emasligi, o'zaro umumiyl va farqli tomonlarini ajratib olish kerakligini unutmasligimiz kerak. Bu haqda tilshunos olim Sh.Safarov bu haqda shunday fikrlarni bildiradi: «Ushbu savollarga hozircha to'liq javob topilganicha yo'q va uning topilishi ham gumonli. Gumon tug'ilishining, albatta, sabablari bor. O'zbek tilshunosligida T.Mardihev o'zining o'ttizga yaqin mualliflik ishlariда aynan konsept tushunchasiga berilgan ta'riflar, xulosalar, nazariyalar haqida ham to'xtalib o'tadi. Olimning fikricha: "Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va

madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma'lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o'z navbatida, so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega.”[6, 36-44]

Bundan tashqari T.Mardihev “Do'st/friend”, “baxtsizlik”, “mehr-muhabbat”, “yurak” konseptlari bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib borib, tadqiqotlari jarayonida o'zbek va ingliz tili materiallarini o'zaro solishtirgan holatda lingvomadaniy ko'rinishda leksik-semantic, etnik jihatdan tahlil qilib bergan. Xuddi shu yo'nalishda M.M.Rahmatovaning ham filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi “Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida “Go'zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari” deb nomlanib, olima bu tadqiqot ishida ingliz, o'zbek va tojik tillari maqollarida aks etgan “go'zallik konsepti doirasida go'zallik prototip ma'nolarining botiniy go'zallik, zohiriyl go'zallik, muhit, hodisa, predmet go'zalliklari kabi aksiologik xususiyatlari asoslab berilgan.

Tilshunos olim O'.Q. Yusupov konsept haqida fikr yuritar ekan, uni shunday ta'riflaydi: konseptni “tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir. Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir”[13, 49]. Bu fikrga ham qo'shilish mumkin, chunki aysbergning suvdan chiqib turgan qismi uning suvostidagi qismiga nisbatan anchayin kichik. Demak, biror so'zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanda ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi. Konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalananadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bg'liq jihatlarini, lingvomadaniy ko'rinishlarini kognitiv talqinda tahlil etadi.

Tilshunoslarning insonning til qobiliyatini modellashtirish masalalariga bo'lgan e'tibori ortib borayotgan va xususan, lisoniy tasvirga ega bo'lgan aqliy makon birlklari sifatida tushunchalarni modellashtirish bilan belgilanadi. Ishda ispan va o'zbek tillarida “Edad” konseptni ifodalovchi ko'p darajali birliklarning (leksik, frazeologik va semantic funksional) semanticasini tahlil qilib, ispan va o'zbek tillarida “Edad” konseptiga xos bo'lgan konseptual xususiyatlar aniqlanadi, ular asosida, o'z navbatida, asosli shakil tuzilishi belgilab olinadi. Semanticani tahlil qilish va til birliklarini aktuallashtirish misollari ispan va o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan yosh tushunchasini idrok etishning milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Til birliklarning semanticasini tahlil qilish, usulidan foydalanish ispan va o'zbek madaniyatida shaxsning yoshga bog'liq holatlarini konsepsiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi.

Turli tillarda “Edad” konseptini ifodalash xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish juda yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan “Edad” konseptini o'rganishni uch guruhg'a bo'lish mumkin:

- ✓ birinchi guruh ilmiy izlanishlarida “Edad” umumiyl tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi, inson hayotining davrlariga mos keladigan tushunchalarning semantic mazmuni o'rganiladi (Avdeeva (2007), Kryuchkova (2003), Litvinenko (2006).), Popova, Melexova (2017), Shcherbo (2008));
- ✓ ikkinchi guruh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida “Edad” konseptini insonning yoshga bog'liq holatlarini aks ettiruvchi individual mikro-

- konsepsiyalarning so'zlashuv jihatlari o'rganiladi (Ashxarava (2002), Babarykina (2010), Blinova (2009), Kalyujnaya (2007)., Kostina (1978), Pogorayeva (2002), Salimyanova (2011)));
- ✓ uchinchi guruhning tadqiqotlari "Edad" konseptini "yoshlik" va "keksalik" tushunchalarining bir-biriga qarama-qarshiligi sifatida so'zlashuv xususiyatlarini o'rganadi (Vlasova (2002), Konovalova (2011), Pintova (2009), Tokko (2010), Fomina (2015)).

Yuqoridagi tadqiqotlarning aksariyati tegishli tillarning leksikografik manbalaridan "Edad" konseptini uzlusiz tanlab olish yo'li bilan tanlangan til birliklari materiallari bo'yicha izlanishlar olib borgan. Leksemalarning semantikasini tahlil qilish asosida tadqiqotchilar "Edad" konseptining leksik-semantik sohasini qurdilar. Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotchilar (masalan, Babarykina T.S. (2010)) ma'lum mualliflarning badiiy asarlari materiali asosida "Edad" konseptini so'zlashuv xususiyatlarini o'rgandilar. Ba'zi ishlarda (Kalyujnaya (2007), Kryuchkova (2003), Pintova (2009) va boshqalar) yosh tushunchasini o'rganishni bir necha tillar materialida amalga oshiradi, bu ularning mualliflarning turli til jamoalari a'zolari tomonidan yosh holatlarini konsepsiyalashdagi farqlari va o'xshashliklarni ko'rsatishga imkon berdi.

Ushbu ilmiy izlanishlardan farqli o'laroq bizning ilmiy izlanishlarimiz "Edad" konseptining ispan va o'zbek tillaridagi leksik-semantik xususiyatlarin o'rganishga bag'ishlanar ekan, ilmiy izlanishlarimiz davomida ikki til ispan va o'zbek tillarida "Edad" konseptni ifodalovchi ko'p darajali birliklarning (leksik, frazeologik va semantik funksional) semantikasini tahlil qilib, ispan va o'zbek tillarida "Edad" konseptiga xos bo'lgan konseptual xususiyatlar aniqlanadi, ular asosida, o'z navbatida, asosli shakil tuzilishi belgilab olinadi.

Tadqiqod metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqod metodologiyasiga asosan "Edad" konseptini taxlil qilish jarayonida semantik tuzilishini komponentli tahlil usuli, konseptual-ta'riflash usuli, stilistik va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi. Ispan va o'zbek tilidagi "Edad" konseptini ifodalovchi so'z birikmalar, frazeologik iboralar, maqol va matallardagi, gap va so'z birikmalardagi sintaktik qurilishi, asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik va ba'zi ma'noviy uslubiy xususiyatlarini yoritish va qiyoslash bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borildi.

Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui: nazariy taxlil, chog'ishtirma tahlil, leksik, stilistik taxlil qo'llanildi. Mazkur ilmiy izlanish ispan va o'zbek tillarda "Edad" so'zi bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ma'nolarni o'rganishga bag'ishlanadi. Unda turlicha tizimdagi tillarda "Edad" so'zi bilan mavjud bo'lgan barqaror iboralar qo'llanilishining o'xshash va farqli stilistik xususiyatlari aniqlanadi, shuningdek ikki halq muqobil barqaror birikmalarining semantik funksional xususiyatlari tahlil qilinadi.

Taxlil va natijalari (Analysis and results)

Semantikani tahlil qilish jarayonida va til birliklarini aktuallashtirish misolida ispan va o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan "Edad" konseptini idrok etishning milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratiladi. Xullas, keyingi yillarda tilshunoslik sohasida paydo bo'layotgan va shakllnayotgan yangi yo'nalishlarning mavjudligi bu sohadagi modernizatsiyalanishning keskin sur'atlarda ekanligidan dalolat beradi. Ana shunday yo'nalishlardan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan konsept atamasi, dastlab, rus tilshunosligida, so'ngra jahoning boshqa tilshunoslik sohalariga kirib bordi. Aynan o'zbek

tilshunosligida 90- yillarga kelib shakllangan tushuncha bugungi kunda ham o'z tadqiqotchilariga ega. Jalon tilshunosligiga nazar tashlasak, tilning konseptulan tabiatiga bo'lgan talab va bu ko'lamda qilingan ishlar, nazariyalar 80-yillarga kelib birmuncha tanqidlarga uchraydi. Yillar o'tishi bilan esa tadqiqot maydoni kengayib konsept va konseptual sohaga talab va qiziqish qayta tiklandi.

"Edad" so'zi lotincha **cevum** (abadiylik, doimiylik) so'zidan kelib chiqan bo'lib. **Tempus** so'ziga nisbatan u uzoqroq vaqtini bildirish uchun ishlatilgan. Leksemaning substantiv xususiyati u bildirayotgan hodisaning ham ma'lum xususiyat va holatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Aksariyat ispancha lug'atlarda leksemaning asosiy ma'nosi "kimdir tug'ilgandan yoki biror narsa boshlanganidan beri o'tgan vaqt" sifatida tan olingan. [Priboram]; [Infopedia]; [DLLP].

Eng keng tarqalgan ma'no – "ma'lum bir kuch darajasi bilan tavsiflangan hayot davri". Bu ma'no "inson hayotining ma'lum bir bosqichi" ma'nosi bilan o'xshashlikni ochib beradi.

"Edad" konsepti yuqoridaqilardan tashqari quyidagi ma'nolarni ham bildiradi:

- ✓ hayot bosqichi; umr ko'rish davomiyligi
- ✓ davr, zamon; tarixiy davr;
- ✓ vaqt ko'rinishlari; cheklangan muddat;
- ✓ qarilik, keksalik;
- ✓ vaqt davomiyligi;
- ✓ geoxronologik masshtabning (geologik) birligi, bosqich.

"Edad" konseptining noaniqligi uning turli ma'nolarida bir vaqtning o'zida bir nechta sinonimik qatorlarning bir qismi bo'lishiga imkon beradi, ham semantik, ham stilistik sinonimlarni oladi:

- ✓ "birovning tug'ilishidan yoki biror narsaning paydo bo'lishidan, o'sib unishidan buyon o'tgan vaqt" ma'nosida "Edad" konsepti quyidagi sinonimlarga ega: año, años (yil, yillar), enero (yanvar), invierno (qish). (keksa odamlarga nisbatan), primavera (baxor) (yoshlarga nisbatan qo'llaniladi);
- ✓ "muayyan kuch darajasi bilan ajralib turadigan hayot davri" ma'nosida "Edad" konsepti quyidagi sinonimlarga ega: infancia (bolalik), juventud (yoshlik), viejez (keksalik);
- ✓ "hayot davri" ma'nosida ; "umrning davomiyligi" – period (davr), generacion (avlod) degan ma'noni anglatadi;
- ✓ "keksalik, qarilik" ma'nosida – anciedad (juda qarilik; antiklik, qadimiylilik), feliz edad (baxtli yosh), tercera edad (uchinchli yosh), edad de planeta (sayyora yoshi), otono de la vida (hayotning kuzi), invierno de la vida (hayot qishi), fase final de la vida (hayotning oxirgi bosqichi) ma'nolrini anglatadi. Ko'rinish turibdiki, "Edad" konsepti o'zining turli integrallik xususiyati bilan xarakterlanadigan tushuncha mazmunini bildiradi. Leksema ko'plab konseptual sohalarni tushunish mumkin bo'lgan kontekst sifatida birlashtiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusions / Recommendations).

Xulosa qilib aytganda insonning yoshi ko'p jihatdan uning ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Yoshga bog'liq "Edad" konsepti til sohasiga "bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh va qarilik" tushunchalari bilan bir qatorda kiritilgan muhim tushunchadir. Ushbu komponentlar o'rganilayotgan konsepsiya sohasining dinamik qiyofasini tashkil qiladi. Shunday qilib, o'rganilayotgan "yosh" tushunchasi markaziy va periferik qatlamlarni o'z ichiga olgan murakkab tuzilishga ega ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Achilova Z.P. "Semantics of the lexeme EDAD as a central lexeme of the nominative field of the concept of "age" in spanish and uzbek languages". International multidisciplinary journal for research development. [Achilova Z.P №12, issue 01 (2025). P. 51]
2. Achilova Z. Ispan va o'zbek tillarida "EDAD" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ma'nolarni idrok etishning milliy o'ziga xos xususiyatlari. "Экономика и социум" №5 (120)-1 2024
3. Achilova Z. P. Tarjima qilish qiyin bo'lgan murakkab morfologik hodisalar va sintaktik konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyatlari // *Journal of Innovations in Scientific and Educational Research.* – 2023. – T. 6. – № 2. – C. 310-315.
4. Achilova Z. P. Og'zaki matn tarjimasining fonetik va leksik qiyinchiliklari va uni yengib o'tish imkoniyatlari // *Pedagogs Jurnali.* – 2022. – T. 3. – № 1. – C. 170-178.
5. Ачилова, Зулхумор Пулатовна "Синхрон таржима жараёнида мураккаб морфологик ҳодисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари." Образование наука и инновационные идеи в мире 31.2 (2023): 23-28.
6. Ачилова Зулхумор Пулатовна "Таржима қилиш қийин бўлган мураккаб морфологик ҳодисалар ва синтактик конструкцияларнинг ўзига хос хусусиятлари". *Journal of innovations in scientific and educational research* 6.2 (2023): 310-315.
7. Ачилова, Зулхумор Пулатовна. "Таржимашунослик назарияси мутахассислиги фанларига бағишлиланган замонавий дарсликлар яратишнинг ахамияти" *journal of innovations in scientific and educational research* 6.2 (2023): 316-318.
8. Ачилова Зулхумор Пулатовна. "Применения метода корректирующей компенсации при переводе политических выступлений." *Journal of innovations in scientific and educational research* 6.2 (2023): 319-322.
9. Ачилова Зулхумор Пулатовна. "Словообразовательные и грамматические трудности при переводе испанского текста на русский". Центрально азиатский журнал образования и инноваций. 2.6 Part 6 (2023): 220-224.
10. Ачилова, Зулхумор Пулатовна. "Оғзаки матн таржимасининг фонетик ва лексик қийинчиликлари ва уни енгид ўтиш имкониятлари". *PEDAGOGS jurnali* 3.1 (2022): 170-178.